

**PRAGMATIK SO‘ROQ GAPLARDA KINOYA, TA‘KID, ZORLANISH
MA’NOLARINING IFODALANISHI**

Ozotboyeva Maxfuzar Ravshan qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalariga e‘tibor qaratilgan. Presuppozitsiya hodisasi va uning so‘roq gaplarda qo‘llanish o‘rinlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. So‘roq gaplar va presuppozitsiya hodisasining nazariy asoslari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy tilshunoslik, pragmatika, so‘roq gap, presuppozitsiya, kinoya, ta‘kid, zorlanish

ANNOTATION

This article focuses on the issues of modern linguistics. Special emphasis is placed on the phenomenon of presupposition and its use in interrogative sentences. The theoretical foundations of interrogative sentences and the phenomenon of presupposition are described.

Key words: modern linguistics, pragmatics, interrogative sentence, presupposition

So‘roq gaplar muallif ruhiy holatini ifoda etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. So‘roq mazmuni faqatgina ikkinchi shaxsdan axborot olish funksiyasini ohang orqali yuzaga chiqadi. She’riy matnlarda so‘roq gaplarning pragmatik mazmuni yanada oydinlashadi:

Ichikdim. Sog‘indim seni, shekilli,

Xo‘rligim keltirar g‘alati gina.

Odamlar shod xurram yuribdi mag‘rur.

Bizlar odammasmi

Osima?! (A.Qutbiddin)

She’r mazmunasni lirik qahramonning ruhiy holati mundarijasini aks ettiradi. Satr ysakuniga borib so‘roq gap ohangni kuchaytiradi. Muallif kinoyasini yuzaga chiqaradi. Ushbu misraning o‘zidayoq lirik qahramonning kinoya, zorlanish kayfiyatii yuzaga chiqadi. Baytda lirik qahramonning kinoya mazmunidagi kommunikativ maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin:

Hamma S-Pdir- Hamma odam shod xurram

Demak ayrim S-Pdir- Demak men ham shod xurram bo‘lishim kerak

Ayrim S-P emas.- Men shod xurram emasman, biz odammasmi?!

Yetmoq og‘irlashar – yuraging teran,

Unga cho‘kib ketar zirqirab jisming.

Gaplasha boshlaysan samovat bilan...

Nimani gaplashaman? Nimani? Nogoh satr paydo bo‘la boshlaydi: “Tilimga keladi og‘ir so‘z”. Bu “og‘ir so‘z” nega keldi? Qayerdan keldi? Nima uchun u “og‘ir so‘z”? Hayajonda tipirchilayotgan ruhim har tarafga o‘zini urib, lahzada paydo bo‘layotgan savollarga munosib javob izlaydi...va bir zum o‘tmasdan allaqaydan besharpa uchib kelgan so‘zning shakli miyamga uriladi. Men o‘qib ulguraman: “Bismil”...Men bu so‘zni hech qachon ishlatmaganman va hatto nimani anglatishini ham bilmayman. Ammo uning o‘rni ushbu she‘rning aynan shu joyida ekanligini negadir aniq his qilaman. Endi to‘rtlik quyidagi ko‘rinish oladi:

Yetmoq og‘irlashar – yuraging

teran,

Unga cho ‘kib ketar zirqirab

jisming.

Gaplasha boshlaysan samovat

bilan –

Tilingga keladi og‘ir so‘z:

“Bismil...”

Xususan, U.Azimning “Undov so‘zlarga bog‘da yozilgan sharhlar” nomli she’rida shoir lirik qahramon va tabiat hodisalari o‘rtasidagi munosabatni uyg‘unlikda tasvirlash hamda tuyg‘ular tabiiyligiga erishishda aynan shu intonatsiya va ohangdan mohirlik bilan foydalanadi. Bu esa so‘roq gapda kinoya mazmunini yuzaga chiqaradi:

O !.. – Daraxt barg ochibdi.

Vuy !.. – Bog‘ gulga ko‘milgan.

Uh !.. – Nimalar qilayapti bu Ayamajuz?

Voy-buy !.. – Hosilning ko‘pligini!

Bay–bay !.. – Bog‘ to‘la meva. To‘kilib yotibdi.

Iye !.. – Bir barg sarg‘aydi.

Oh !.. – Xazonrez.

Uf !.. – Buncha g‘amgin bu imillagan yomg‘ir?

Uh !.. – Yaydoq shoxlarni oralab, bir zarra qor uchib o‘tdi...

Demak,

tugadi undov so‘zlar.

Endi bahorgacha

bosiq suhbatdir...

Maqsad shirin so‘zlar, nozik adolar va yoqimli hikoyatlar bilan shoirona ilhomdan bashorat berish va uni o‘quvchi xayolotiga joylashtirish, O‘z kinoyasini takidlashdir.

She’riyatdagi bunday tashbehlar shoirona hunar bo‘lib, u adabiy taxayyul, deb ataladi. Usmon Azim esa bu san’atning donishmand vakili sifatida sahnaga chiqqan va uning yangragantuyg‘ular iztirob, alam zorlik mazmunida yuzaga chiqadi::

Umrim tugayapti – yo‘qdir daraging,
 Sensiz vujudimda qancha toqat bor?
 Tongda derazani ochding, qarading –
 Tashqarida qordir, tashqarida qor.

Ushbu gapda so‘roq gap orqali zorlanish, mazmuni ifodalanadi. Draka gap shaklida ushbu mazmunni ifodalash imkonи torroq.

shivirlab osoyishta o‘qiladigan quyidagi ta’sirli misralardan mazkur rang - baranglik holatiga g‘arq bo‘lish aniq va bu holatlar esa maftunkor va e’zozli quyosh ziyyosiga o‘xshab ketadi. Lingvistik nuqtayi nazardan *Yonarqurt-ku bu tirik olov jumlesi hayratlanish, tajjubga tushish mazmunini anglatadi:*

Ariqlarda oqib borar oy –
 Ariq borar ko‘tarib fonus.
 Oydin kunda kechganicha loy,
 Pishqirmasdan suv ichar poliz.

O, qanaqa ertakdan tushdi –
 Yonarqurt - ku bu tirik olov?!
 Uning mitti shafag‘in quchdi
 Yulduz kabi to‘kildi qirov.
 O, naqadar farog‘atda dil –
 Dil oy kabi sochadi ziyo.
 Meni nega qiynading qirq yil,
 Baxthli bo‘lish oson - ku, dunyo?!

Yashirin gulxandan to‘lg‘onmoq nechun –
 Go‘zal yonishlarni yelga sovurish ?
 Sen uchun yonmoqlik umrimning burchi –
 Qara, nasib etdi sevgi – og‘ir ish .

Bu “og‘ir ish” ning lirik qahramonga nasib bo‘lishi va bunday o‘rtanish, ishq iztiroblari shirin bir to‘lg‘onish, go‘zal bir yonishdir. Bu baxtning “og‘ir” ligiga, bor mushkulligiga u shukur qiladi

Umuman olganda, so‘roq gaplarda ifodalanadigan ma’nolar serqirra va betakror. Matnda qanday pragmatik mazmunning yuzaga chiqishi kontekstual vaziyat va muallifning kommunikativ maqsadiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika . – Toshkent, 2008
2. Haynazarova M. So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomunofiqligi. Filol. fan. nom. ... diss - T., 1999
3. Umurzaqova M. O‘zbek tilida segment qurilmalarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol. fan. nom. diss - T., 2019

4. U. Rahimov. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fan. nom. diss. Avtoref. - Samarqand, 1994. 23- b
5. N.Mahmudov., Nurmonov A O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995
6. www.kitobdunyosi.uz

| | |
|-------------------|--|
| 7. Familiya 8. | Ozotboyeva |
| Ismi | Maxfuza |
| Otasining ismi | Ravshan qizi |
| Davlat, shahar | O'zbekiston, Xorazm |
| Ish joyi | Xorazm viloyati Hazorasp tumani 13-maktab |
| Maqola nomi | Pragmatik so'roq gaplarda kinoya, ta'kid, zorlanish ma'nolarining ifodalanishi |
| E-mail | maxfuzaozotboyeva@gmail.com |
| Telefon raqam | +998977757808 |